


Asosiy kapitalga investitsiyalar yanvar-mart 2020-yil


Joriy davrda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **4 762,6** mlrd. so`mni yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan **81,5 %** ni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi **2 951,2** mlrd. so`m yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **68,7 %** ni tashkil qildi. Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan, asosiy kapitalga investitsiyalarning **38,0 %** i yoki **1811,4** mlrd. so`m o'zlashtirildi.




Asosiy kapitalga investitsiyalarning **62,0** % ni yoki **2 951,2** mlrd. so'mini markazlashgan investitsiyalar tashkil qildi. Hisobot davrida O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlari mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga **2 895,3** mlrd. so'm investitsiyalar kiritildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan **68,6** foizni tashkil qildi, Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan **34,1** mlrd. so'm yoki o'tgan yilga nisbatan **47,6** %, Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan **21,8** mlrd. so'm o'zlashtirilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,1** martaga oshdi. Bu yirik investitsion loyihalar bilan bog'liq bo'lib, "UZBEKISTAN GTL" ma'suliyati cheklangan jamiyati tomonidan tozalangan metan gazidan sintetik suyuq yoqilg'ini ajratib olish uchun mo'ljallangan uskunalar keltirilmoqda hamda qurilish ishlari bajarilmoqda.

Markazlashgan investitsiyalarning jami hajmdagi ulushi, % da



- Respublika byudjeti
- O'z.R kafolati ostida xorijiy kreditlar
- Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish



Asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi, ya'ni jami investitsiyalarning **38,0** % i yoki **1 811,4** mlrd. so'mini markazlashmagan investitsiyalar tashkil qildi. Shundan, yuqori ulush to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushiga to'gri kelmoqda. Bunga sabab viloyatimizda xorijiy korxonalar tomonidan ko'proq investitsiyalar jalb qilinganligi bilan bog'liqdir.



Korxona mablag'lari hisobidan **477,9** mlrd. so'm investitsiyalar moliyalashtirilgan. Bu yirik korxonalar tomonidan hisobot davrida avtomobil yo'llari va elektr uzatma liniyalarini qurish bilan bog'liqdir. Aholi mablag'lari hisobidan **301,3** mlrd. so'm yoki **16,6** % ini, tijorat bank kreditlari tomonidan jami investitsiyalarning **4,1** % i yoki **73,9** mlrd. so'm investitsiyalar jalb qilindi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar
(2020-yil yanvar-mart oylarida)

	mlrd. so`m	o'sish sur'ati, foizda	yakunga nisbatan foizda
Asosiy kapitalga investitsiyalar	4762,6	81,5	100
Markazlashgan investitsiyalar:	2951,2	68,7	62,0
➤ Byudjet mablag`lari	34,1	47,6	1,2
➤ Tiklanish va taraqqiyot fondi mablag`lari	-	-	-
➤ Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	21,8	405,6	0,7
➤ O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	2895,3	68,6	98,1
Markazlashmagan investitsiyalar:	1811,4	117,7	38,0
➤ Korxonalarning o`z mablag`lari	477,9	72,4	26,4
➤ Aholi mablag`lari	301,3	102,9	16,6
➤ To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiya va kreditlar	957,3	235,7	52,8
➤ Tijorat banklari kreditlari	73,9	41,0	4,1
➤ Boshqa qarz mablag`lari	1,0	88,2	0,1


Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi **38,0 %** ni yoki **1811,4** mlrd. so`mni tashkil etdi. O`z mablag`lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida korxona va tashkilotlar mablag`i **477,9** mlrd. so`m yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning **10,0 %** i o`zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hududlar kesimida

(2020-yil yanvar-mart oylarida)

	Jami		shu jumladan xorijiy investitsiya va kreditlari	
	mlrd. so`m	o`sish sura`ti, foizda	mlrd. so`m	jamiga nisbatan ulushi, foizda
➤ Viloyat bo`yicha:	4762,6	81,5	3852,6	80,9
shaharlari:				
➤ Qarshi	236,6	101,1	50,9	21,5
➤ Shahrисабз	14,2	75,0	-	-
tumanlari:				
➤ G'uzor	2770,2	21,7 m.	2483,1	89,6
➤ Dehqonobod	58,7	14,2	38,9	66,3
➤ Qamashi	67,1	136,4	31,6	47,1
➤ Qarshi	165,1	102,5	128,4	77,8
➤ Koson	36,5	65,2	0,7	1,9
➤ Kitob	122,7	176,4	76,8	62,6
➤ Mirishkor	27,4	83,1	-	-
➤ Muborak	19,1	8,1	1,3	6,8
➤ Nishon	1066,2	25,0	969,2	90,9
➤ Kasbi	96,8	284,8	71,5	73,9
➤ Chiroqchi	24,4	61,6	-	-
➤ Shahrисабз	29,7	58,3	0,2	0,7
➤ Yakkabog'	27,9	53,4	-	-


Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida G'uzor va Nishon tumanlarining o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Ushbu tumanlarda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning G'uzor tumanida **58,2 %** i, Nishon tumanida esa **22,4 %** i o'zlashtirildi. Qarshi shahrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning viloyatdagi ulushi **5,0 %** ni tashkil qilgan bo'lsa, Shahrисабз shahrida esa bu ko'rsatkich bo'yicha eng kam jalb etilgan investitsiya hajmiga to'g'ri keldi, ya'ni **-0,3 %**.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

(jam'i hajmdagi ulushi, % da)



- G'uzor
- Dehqonobod
- Qamashi
- Qarshi
- Koson
- Kitob
- Mirishkor
- Muborak
- Nishon
- Kasbi
- Chiroqchi
- Shahrisabz
- Yakkabog'
- Qarshi sh.
- Shahrisabz sh.


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami mlrd. so'm	<i>shu jumladan, ulushi % da</i>		
		qurilish-montaj ishlari	mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo`jalik jixozlari	boshqa xarajatlar
➤ Viloyat bo`yicha:	4762,6	56,7	30,1	13,2
<i>shaharlari:</i>				
➤ Qarshi	236,6	60,0	34,9	5,1
➤ Shahrисабз	14,2	46,5	43,0	10,5
<i>tumanlari:</i>				
➤ G'uzor	2770,2	71,9	13,1	15,0
➤ Dehqonobod	58,7	71,6	1,9	26,5
➤ Qamashi	67,1	66,8	25,3	7,9
➤ Qarshi	165,1	24,7	70,4	4,9
➤ Koson	36,5	30,4	44,9	24,7
➤ Kitob	122,7	64,1	29,8	6,1
➤ Mirishkor	27,4	55,1	21,9	23,0
➤ Muborak	19,1	45,5	20,4	34,1
➤ Nishon	1066,2	25,1	64,4	10,5
➤ Kasbi	96,8	18,3	74,3	7,4
➤ Chiroqchi	24,4	61,5	1,6	36,9
➤ Shahrисабз	29,7	26,9	58,9	14,2
➤ Yakkabog'	27,9	44,8	37,3	17,9

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

(jamiga nisbatan % da)

■ 2020-yil yanvar-mart




Tog'-kon sanoati tarmog'i bo'yicha **2487,7** mlrd. so'm o'zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining **52,2 %** ini tashkil qildi, elektr energiya va gaz ta'minoti sohasida **1033,6** mlrd. so'm investitsiya o'zlashtirilib, jami investitsiyadagi ulushi **21,7 %** ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

2020-yil yanvar-mart oylarida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi boshqa yo`nalishlarga yo`naltirilgan bo`lib, boshqa yo`nalishlarga yo`naltirilgan investitsiyalarning hajmi **2325,6** mlrd. so`mni tashkil etib, jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning **48,8 %** ini tashkil etdi.

Yangi qurilishga yo`naltirilgan investitsiyalar hajmi **1872,4** mlrd. so`mni tashkil etib, jami investitsiyalarning **39,3 %**ini o`zlashtirildi. Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik qayta quollantirishga yo`naltirilgan investitsiyalar **564,6** mlrd. so`mni tashkil etdi va viloyatda jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning **11,9 %**ini tashkil qildi.


Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya va texnikaviy qayta quollantirish
- Boshqalar

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2020-yil yanvar-mart oylarida **3852,6** mlrd. so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning **80,9** % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.




Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar **359,5** mlrd. so`mni tashkil qildi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **9,3** %. Shuningdek, **3493,1** mlrd. so`m xorijiy kreditlar hisobiga to`g`ri keldi va jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **90,7** % ni tashkil qildi.

Hududlar bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

	Xorijiy investitsiya va kreditlari (mlrd. so'm)	shu jumladan	
		xorijiy investitsiya	xorijiy kreditlar
➤ Viloyat bo'yicha:	3852,6	359,6	3493,0
<i>shaharlar:</i>			
➤ Qarshi	50,9	12,7	38,2
➤ Shahrисабз	-	-	-
<i>tumanlar:</i>			
➤ G'uzor	2483,1	6,1	2477,0
➤ Dehqonobod	38,9	38,9	-
➤ Qamashi	31,6	31,6	-
➤ Qarshi	128,4	119,7	8,7
➤ Koson	0,7	0,7	-
➤ Kitob	76,8	76,8	-
➤ Mirishkor	-	-	-
➤ Muborak	1,3	1,3	-
➤ Nishon	969,2	0,1	969,1
➤ Kasbi	71,5	71,5	-
➤ Chiroqchi	-	-	-
➤ Shahrисабз	0,2	0,2	-
➤ Yakkabog'	-	-	-

Uy-joylarni foydalanishga topshirish ming kv.m



2020-yil yanvar-mart oylarida jami umumiy maydoni 198,1 ming kv.m, (2019-yilning mos davriga nisbatan 89,4 %) bo`lgan 1215 ta turar joy obyekti yangi qurilib ishga tushirildi. Ulardan umumiy maydoni 93,6 ming kv.m. bo`lgan 566 tasi qishloq joylarda foydalanishga topshirildi.

Ishga tushirilgan turar joylarning hududlar kesimida solishtiradigan bo`lsak, eng ko`pi Qarshi tumanida ishga tushirilgan 20,1 ming kv.m. va u viloyat bo`yicha ishga tushirilgan jami umumiy maydonning 10,2 % ini tashkil etdi. Eng kam turar joy Shahrisabz shahrida ishga tushirilgan bo`lib, uning ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Nashr uchun ma'sul: A.Isaev
aloqa telefoni: 75-221-32-47